

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON HAQ – HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI KAFOLATINING YARATILISHI

G'ofurjonova Ferangiz Feruz qizi ¹

¹ Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti 1-bosqich Ing-1 guruhi talabasi

Pochta manzili: ferangizgafurjonova@gmail.com

Telefon raqam: +998937378503

Naimov.I.N ¹

¹ Ilmiy rahbar

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.01.2025

Revised: 14.01.2025

Accepted: 15.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

huquq, erkinlik,
kafolat, O'zbekiston,
konstitutsiya, strategiya,
islohot.

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda inson haq-huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi, uning O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilishi hamda bu borada "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasiga asoslangan holda amalga oshirilayotgan bir nechta islohotlar atroflicha tahlil qilinadi.

KIRISH. O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari aynan istiqbol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi bilan avvalgi davrlardan alohida ajralib turadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Davlat rahbariyati tomonidan demokratik tamoyillarni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar samarasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri, "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasi va shu kabi ko'plab o'rinlarda yaqqol namoyondir.

Asosiy qism.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash g'oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa'y-harakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi muhim omilga aylandi.

Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Ya'ni bu Konstitutsiya, tom ma'noda, o'zbekona "Inson huquqlari to'g'risidagi bill"ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor⁵⁶. Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi ovozi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo'yilgan. Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya'ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo'yilgan. Biz, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash maqsadida Konstitutsiyamizning butunlay bir bo'limi ajratilgan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 2-bo'lim, 5-11boblar, 19-64-moddalar inson huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan. 2-bo'limning "INSON VA FUQARONING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCH LARI" deya nomlanishi buning yaqqol isbotidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, tom ma'noda, inson huquq va manfaatlarining huquqiy kafolati hisoblanadi. Buni bir emas, bir nechta misollarda ko'rish mumkin:

Birinchi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi barcha normalar yagona tushuncha, ya'ni "inson qadri" degan tushunchaning atrofiga qurilgan. Xususan, huquqiy davlat tushunchasidan tortib, sudga murojaat qilish, uy-joy bilan ta'minlanish, so'z erkinligi va boshqa huquqlar, avvalo, insonga tegishli hisoblanadi.

Ikkinchi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat va jamiyat ishlarini boshqarish inson bilan maslahatlashgan holda amalga oshirilishi belgilangan.

Jumladan, 9-moddaning birinchi qismiga muvofiq, "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovoziga — referendumga

⁵⁶ Akmal SAIDOV, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, nutqidan.

qo'yiladi.". Ma'lumki, referendumda fuqarolar ishtirok etadi, munosib tanlovini amalga oshiradi. Shu o'rinda insonning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekani, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekani, O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanishi alohida qayd etildi. Mazkur norma Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyada (2-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda (2, 6-moddalar) nazarda tutilgan.

Inson huquqlari va ularni kafolatlash davlatning oliy maqsadi etib belgilangan. (54-modda.

Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir.

Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.) Bundan tashqari, Konstitutsiyamizda fuqarolarning (ularning yoshi, mansabi, irqi, dini, millati va boshqa jihatlaridan qat'i nazar) huquqlarini belgilab qo'yilgan. Misol uchun, 57-moddaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi." Bu moddadan jamiyatimizdagi imkoniyati cheklangan fuqarolarga bo'lgan e'tiborni ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda jamiyatimizda gender tengligi o'rnatildi va bu bosh qomusimizda 58-moddada belgilanib qo'yildi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi. Xususan, gender siyosati sabab – so'nggi yetti yilda O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko'tarildi.

"Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik. Mana shunday huquqiy asosda "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasini

qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uygʻun boʻlib, biz oʻz zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni toʻla va qatʼiy bajarmoqdamiz”. Bu fikrlar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida 2023-yil 19-sentyabr kuni soʻzlagan nutqidan. Avvalambor, mamlakatimizda mustaqillikning oʻtgan 32 yili mobaynida birinchi marotaba bunday uzoq muddatga, yaʼni 7 yilga moʻljallangan qamrovdor milliy taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Bu strategiyadagi asosiy gʻoyalardan biri – xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlat barpo etishdir. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli koʻrsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi koʻzda tutilgan boʻlsa, birgina mana shu yoʻnalish 16 ta maqsad (74-89-maqsadlar) doirasida qonun ustuvorligini taʼminlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish borasida belgilab berilgan 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani oʻzida qamraydi.

Oʻzbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida eʼtirof etganidek, “Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha eʼtiborga loyiq natijalarga erishdik”. Tabiiyki, yangi Strategiyamizda bu borada yangi marralarni belgilab oldik va bunga ayrim misollar keltiraman⁵⁷.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida, xususan, keyingi yetti yilda aholining oʻrtacha umr davomiyligini 78 yoshga yetkazish belgilangan. Bu, taʼbir joiz boʻlsa, insonning yashash va sogʻligʻini saqlashiga oid konstitutsiyaviy huquqlari yanada toʻliq roʻyobga chiqishiga xizmat qiladi.

Tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi boʻgʻinning oʻzida hal etishga erishish koʻzda tutilmoqda. Bu ezgu maqsad – insonning sogʻligʻini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga taalluqli konstitutsiyaviy huquqlari taʼminlanishi bilan chambarchas bogʻliq.

Bolalarni maktabgacha taʼlim va tayyorlov guruhlarini bilan toʻliq qamrab olish, “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qoʻshma taʼlim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish rejalashtirilmoqda. Strategiyada insonning taʼlim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini yanada taʼminlashga xizmat qiladigan bunday aniq maqsad-vazifalar anchagina.

⁵⁷ Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov tilidan

Yana bir misol: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida 2026 yilga qadar kamabag‘allikni 2022 yilga nisbatan 2 barobarga, 2030 yilga qadar esa keskin kamaytirish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi. Shuningdek, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholining daromadlarini oshirish choralari ko‘riladi.

Ushbu strategiya O‘zbekistonning kelajagini belgilovchi muhim hujjat bo‘lib, mamlakatimizning barcha sohalarida barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi. 2030-yilga qadar amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar va loyihalar orqali O‘zbekiston o‘z maqsadlariga erishishga intiladi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash jarayoni hali ham o‘z nihoyasiga yetgani yoq. Shuningdek, bu sohada hali ham ko‘plab muammolar mavjud. Chunki, bu muammolarni hal etish uchun davlat va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Inson huquqlarini ta‘minlash — bu nafaqat davlatning, balki har bir fuqaroning mas‘uliyati hamdir. Faqat shu yo‘ldagina, biz O‘zbekistonda, haqiqatan ham, erkin va adolatli jamiyatni barpo etishimiz mumkin.

REFERENCES:

1. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/prava-cheloveka-v-uzbekistane>
2. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat
3. https://uza.uz/oz/posts/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya-inson-huquq-va-manfaatlari-kafolati_545684
4. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m11427>
5. <https://kun.uz/news/2024/07/19/ozbekistonda-xotin-qizlarning-davlat-boshqaruvidagi-ulushi-35-foizgacha-kotarildi>
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi nashr-2023